AKTIVLAR VA MAJBURIYATLARNI MHXS ASOSIDA BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	842
G'anibayev Iloxomjon Shokiraliyevich	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH JARAYONINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH BILAN BOG'LIQLIGI	847
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, Turdimuratova Aziza Alisherovna	
AGRAR ISHLAB CHIQRISHNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA "QISHLOQ XO'JALIGI-4.0" VA "AQLLI QISHLOQ XO'JALIGI" KONSEPSIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH.....	851
Yusupov Muxiddin Soatovich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI GURUHLASH VA BAHOLASH.....	860
Davlyatov Bekzodjon Aslanxojayevich	
TA'LIM TIZIMINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHDA XORIY TAJRIBASINING AHAMIYATI	864
Sobirov Shaxzod Ozod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	868
Karimov Mirolimjon Karimjon o'g'li	
ПРОБЛЕМЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	875
Аликулов С. А., Хамракулова О. Д.	
YASHIL IQTISODIYOTDA KORXONALAR BOSHQARUV MEKANIZMLARINING EVOLYUTSIYASI: KONSEPTUAL TAHLIL.....	880
Nabiev Bobur Muhammadqosim o'g'li	
SUD-HUQUQ TIZIMINI YANADA DEMOKRATLASHTIRISH: JORIY HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	884
Majidov Muslimbek Maxamadjon o'g'li	



IQTISODIYOTNI LIBERALLASHTIRISH SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA KLASTERLARNI TASHKIL ETISHNING TASHKILIIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	889
Xo'jageldiyev Chorshanbi Pardayevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	893
Shaymanova Nigora Yusupovna	
XO'JALIK FAOLIYATINI SAMARADORLIGI VA BIZNES HOLATINI BAHOLASH	899
Abdukarimova Muslima Abduaziz qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
CROSS-BORDER E-COMMERCE IN CENTRAL ASIA.....	904
Bakhtiyorjon Komilov	
O'ZBEKISTONDA NORASMIY SEKTOR ISHCHILARINING PENSIYA TA'MINOTI MASALALARI.....	908
Abdulazizova Nargiza Baxodir qizi	
KORXONA VA TASHKILOTLARDA QOG'OZ SARFINI OPTIMALLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBASI	913
Oripov Mirzo Mahmudovich	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ЗАЩИТЕ ВНУТРЕННЕГО РЫНКА ОТ КОНТРАФАКТНОЙ ПРОДУКЦИИ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН).....	917
Ибраимова Махсура Уснатдин кизи	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	922
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi	
THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES ON THE PROCESSES OF DIGITAL TRANSFORMATION IN THE INSURANCE INDUSTRY.....	927
D.D.Omonova	
THE ROLE OF INTERNATIONAL FINANCIAL INSTITUTIONS IN THE GLOBAL ECONOMY AND THEIR STAGES OF DEVELOPMENT	933
Yovkochev Sherzod	
YURIDIK SHAXSLARNI YIRIK SOLIQ TO'LOVCHILAR TOIFASIGA KIRITISH MEZONLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	941
To'raqulov Bekzod Hazratqul o'g'li	
BUTUNJAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LIHDA SOLIQ TIZIMINI TRANSFORMATSIYA QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	945
Xojakbar Zaynabidinov	
BANK TIZIMIDA TAVAKKALCHILIK TUSHUNCHASI VA UNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	950
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
REAL SEKTOR TARMOQLARINI KREDITLASHDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI.....	955
Savurbayev Zafar Abdumuminovich	
INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK OMILLARI VA ULARNING BOSHQARUVI	960
D. G. Bazarov	
YANGI O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK SOHASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA KOMPLEKS TIZIMLASHTIRISH	966
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
XIZMATLAR KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSIYA FAOLIYATINI SAMARALI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLI TAVSIYALAR	971
Xudayberdiyeva Nargiza Nizomiddin qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	976
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLARNI ISHLAB CHIQRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	981
Mirzayev Kobil Nosirjonovich	



PUL AYLANMASINI TASHKIL QILISHNING XORIJ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI.....	987
Gadoyev So'hrob Jumakulovich	



PUL AYLANMASINI TASHKIL QILISHNING XORIJ TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI

Gadoyev So'hrob Jumakulovich

Termiz davlat universiteti
Moliya kafedrasini mudiri,
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.
suhrob.gadoev.81@mail.ru
ORCID: 0000-0003-4822-8904

Annotatsiya. Pul aylanishini tashkil qilish va boshqarish iqtisodiyotning muhim jihatlaridan biri bo'lib, unda xorij tajribasidan foydalanish O'zbekiston uchun foydali imkoniyatlar yaratishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi (AQSH, Yevropa Ittifoqi) shuni ko'rsatadiki, bu mamlakatlarda pul aylanishi markaziy banklar (masalan, Federal zaxira tizimi yoki Yevropa Markaziy Banki) tomonidan qat'iy nazorat qilinadi. Pul massasini boshqarish uchun foiz stavkalari, ochiq bozor operatsiyalari va bank zaxiralari talablari kabi vositalardan foydalaniladi. Elektron to'lov tizimlari va raqamli valyutalar (masalan, SWIFT, PayPal) keng rivojlangan bo'lib, naqd pulsiz operatsiyalarni rag'batlantiradi. Bu pul aylanishining shaffofligini oshiradi va iqtisodiy samaradorlikni yaxshilaydi.

O'zbekistonda pul aylanishi Markaziy bank tomonidan boshqariladi. So'nggi yillarda naqd pul muomalasidan elektron to'lovlarga o'tish tendensiyasi kuchaymoqda (masalan, HUMO, UzCard tizimlari). 2020-yildan boshlab elektron pullar tizimi joriy etildi va hozirda foydalanuvchilar soni 5 milliondan oshdi. Bu naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishda muhim qadamdir. Biroq, pul massasini boshqarishda inflyatsiya nazorati, valyuta kursi barqarorligi va bank tizimining samaradorligi kabi muammolar mavjud.

Ushbu maqolada pul aylanmasi mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog'liq dolzarb muammolar aniqlanadi va ularni hal etishga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: pul aylanishi, ochiq bozor operatsiyalari, pul massasi, bank zaxiralari talablari, naqd pulsiz operatsiyalar, elektron to'lovlar, to'lov kartochkalari.

Abstract. Organizing and managing money circulation is one of the crucial aspects of the economy, and leveraging international experience can create beneficial opportunities for Uzbekistan. The experience of developed countries (USA, European Union) shows that money circulation in these countries is strictly regulated by central banks (e.g., the Federal Reserve System or the European Central Bank). Tools such as interest rates, open market operations, and reserve requirements for banks are used to manage the money supply. Electronic payment systems and digital currencies (e.g., SWIFT, PayPal) are highly developed, promoting cashless transactions. This increases the transparency of money circulation and enhances economic efficiency.

In Uzbekistan, money circulation is managed by the Central Bank. In recent years, there has been a strong trend toward transitioning from cash transactions to electronic payments (e.g., HUMO, UzCard systems). Since 2020, an electronic money system has been introduced, and the number of users has exceeded 5 million. This represents a significant step toward a cashless economy. However, challenges remain in managing the money supply, including inflation control, exchange rate stability, and the efficiency of the banking system.

This article identifies pressing issues related to improving the practical mechanisms of money circulation and develops scientific proposals aimed at addressing them.

Key words: money circulation, open market operations, money supply, bank reserve requirements, cashless transactions, electronic payments, card payments.



Аннотация. Организация и управление денежным обращением является одним из важных аспектов экономики, и использование международного опыта может создать выгодные возможности для Узбекистана. Опыт развитых стран (США, Европейский союз) показывает, что в этих странах денежное обращение строго контролируется центральными банками (например, Федеральной резервной системой или Европейским центральным банком). Для управления денежной массой используются такие инструменты, как процентные ставки, операции на открытом рынке и требования к банковским резервам. Электронные платёжные системы и цифровые валюты (например, SWIFT, PayPal) развиты на высоком уровне, что способствует безналичным операциям. Это повышает прозрачность денежного обращения и улучшает экономическую эффективность.

В Узбекистане денежное обращение регулируется Центральным банком. В последние годы усиливается тенденция перехода от наличных расчётов к электронным платежам (например, системы HUMO, UzCard). С 2020 года введена система электронных денег, и количество пользователей превысило 5 миллионов. Это важный шаг к безналичной экономике. Однако остаются проблемы в управлении денежной массой, включая контроль инфляции, стабильность валютного курса и эффективность банковской системы.

В данной статье определяются актуальные проблемы совершенствования практических механизмов денежного обращения и разрабатываются научные предложения, направленные на их решение.

Ключевые слова: денежное обращение, операции на открытом рынке, денежная масса, требования к банковским резервам, безналичные операции, электронные платежи, платежи по картам.

KIRISH

Rivojlangan mamlakatlarda naqd pulga bo'lgan ehtiyoj plastik kartochkalarga asoslangan to'lov tizimi va yuridik shaxslarning naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish amaliyotini rivojlantirish orqali bartaraf etilgan. Naqd pulsiz to'lovlar ichida nisbatan eng samarali va iste'molchilar orasida eng keng tarqalgani — bu banklarning to'lov kartochkalaridir.

Bugungi kunda to'lov kartochkalari muomaladagi naqd pullar va bank cheklarini tobora siqib chiqarmoqda. Chunki cheklarni qayta ishlash kartochkalar bilan operatsiyalarni amalga oshirishga qaraganda banklarga bir necha marta qimmatga tushadi. Mikroprosessor texnologiyalarini amalga oshirilishi bank to'lov kartalarining o'rnini yanada oshishiga sabab bo'ldi, chunki "elektron hamyonlar" banklar uchun bozorning eng noqulay segmenti bo'lgan mayda to'lovlar segmentini yopib qo'yishi mumkin.

To'lov kartalari bozorida yetakchi mavqeyni Visa International va Master Card egallaydi.

Visa International 2023-yilning 1-may holatiga, 2 milliard donadan ortiq kartochka ishlab chiqargan bulib, 21 mingta moliyaviy institutni birlashtiradi. Ushbu kartochkalar dunyo bo'yicha joylashgan 20 millionta punktda qabul qilinadi. Visa International kartasi orqali yillik amalga oshiriladigan savdo aylanmasi 4,9 trillion dollarni tashkil kiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Professor O. I. Lavrushin tahriri ostida chop etilgan "Bank ishi" darsligida naqd pulsiz hisob-kitoblarga quyidagi uch shaklda amalga oshiriladigan hisob-kitoblar kiritilgan:

- to'lovchilar va pul mablag'larini oluvchilarning kredit muassasalarida ochilgan hisob raqamlariga yozish yo'li bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblar;
- o'zaro talablarni voz kechish yo'li bilan amalga oshiriladigan hisob-kitoblar;
- muomaladagi to'lov instrumentlari (veksellar, varrantlar va h.k.)ni uzatish orqali amalga oshiriladigan hisob-kitoblar [1].

M. Berezinaning fikriga ko'ra, "...pul aylanmasining asosiy qismini to'lov aylanmasi tashkil etib, unda pullar to'lov vositasi sifatida amal qiladi" [2]. Boshqa bir guruh iqtisodchi olimlarning qarashlariga binoan, "to'lov aylanmasi kompaniyalar va korxonalar pul aylanmasining bir qismi bo'lib, unda pulning to'lov vositasi, majburiyatlarni uzish (qaytarish) vositasi sifatidagi harakati aks etadi" [3].

X. Raximova "chakana to'lovlarni naqd pulsiz asosga o'tkazishni, 'Smart kart' texnologiyalaridan foydalanishni va iqtisodiyotda bankdan tashqari pul aylanmalarini qisqartirishni taklif qiladi" [4].

N. Jumayev o'zining ilmiy izlanishlarida "mamlakatimiz iqtisodiyotida dollar fetishizmining paydo bo'lganligini va uning pul muomalasi hamda milliy valyuta tizimiga nisbatan salbiy ta'sirining mavjudligini e'tirof etgan" [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishini amalga oshirishda pul aylanmasini tashkil qilishning xorij tajribasi va O'zbekistonda undan foydalanish imkoniyatlarini o'rganishda iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlarini tahlil qilish, statistik tahlil



usullaridan foydalanish, shuningdek muallif tajribalarini qiyosiy tahlil qilish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosalar chiqarildi va takliflar berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Visa International to'lov tizimi tomonidan VisaDirect texnologiyasi ishlab chiqildi va hozir G'arbiy Yevropadagi tijorat banklarida joriy qilinmoqda. Ushbu texnologiya Visa kartochkalariga birlashtirilgan hisob raqami bo'yicha to'lovlarni bir mamlakatdan ikkinchisiga tez va ishonchli tarzda amalga oshirish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda har ikkala kompaniya tomonidan to'lov kartochkalarini mikroprotsessor texnologiyalariga o'tkazish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Bunda asosiy e'tibor mikroprotsessorli kartochkalarni ko'p funktsiyali bo'lishiga qaratilmoqda. Bunday kartochkalar emitentlar, ekvayyer banklar va iste'molchilar uchun qulay bo'lishi lozim. Hozircha ayrim banklar tomonidan bu borada qilingan juda yirik xarajatlar boshqa banklar va mustaqil kompaniyalarni cho'chitib turibdi. Masalan, Germaniyada bunday kartochkalarni muomalaga kiritish banklarga 460 mln AQSH dollariga tushgan.

Bugungi kunda dunyo bo'yicha to'lov kartochkalari orasida eng keng tarqalgani kredit kartochkalari hisoblanadi.

Xorijiy banklar plastik kartochkalar tizimi xarajatlarini kamaytirish va moliyaviy ma'lumotlarni tashqi foydalanuvchilardan himoyalash tizimining ishonchlilikini oshirish maqsadida o'z to'lov tizimlarida smart-kartalardan foydalanish ustida ish olib bormoqda.

Rivojlangan davlatlarda plastik kartochkalar vositasidagi to'lov hajmi o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Har 1000 kishiga to'g'ri keladigan plastik kartochkalar soni Kanada (6181 ta), AQSH (4324 ta), Yaponiya (4097 ta) va Angliyada (3007 ta) boshqa rivojlangan mamlakatlarga qaraganda yuqori ko'rsatkichni saqlab turibdi. Buning sababi, birinchidan, mazkur davlatlarda plastik kartochkalar vositasida amalga oshiriladigan to'lov tizimining juda rivojlanganidir.

Masalan, Angliya tijorat banklarida kreditlardan olingan foizlar jami bank daromadlarining 50 foizidan oshmaydi, olinadigan daromadlarning qolgan qismi esa boshqa bank xizmatlaridan, jumladan plastik kartochkalar bilan bog'liq to'lov xizmatlaridan tashkil topadi. Ikkinchidan, G'arbiy Yevropaning bir qator mamlakatlarida, jumladan Germaniya, Fransiya, Italiya va Belgiyada pullik cheklar orqali hisob-kitob qilish keng tarqalgan.

Bank of America Meksikaga pul o'tkazmalarini yuborish bo'yicha o'z xizmatini SafeSend Transfer Card plastik kartochkalari orqali taklif qilmoqda. Bu kartochka jo'natilgan pul mablag'ini 26 mingta bankomatdan olish imkoniyatini beradi. Pullar kartochka to'ldirilganidan so'ng 6 daqiqa ichida oluvchiga yetib boradi.

Citigroup ham Meksikaga pul o'tkazish bo'yicha o'z xizmatini taklif qiladi. Buning uchun migrantga Citibankda kartochka hisob raqami ochiladi va unga plastik kartochka beriladi. Plastik kartochka Meksikadagi oluvchiga beriladi va unga PIN-kod yetkaziladi. Ushbu kartochkalar bo'yicha pul mablag'larini Meksikadagi 20 ming bankomatdan olish mumkin. Kartochkani oylik saqlash haqi 5 dollar, har bir jo'natma uchun bank 7,95 dollar oladi, bunda jo'natma summasi hisobga olinmaydi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida plastik kartochkalar orqali amalga oshiriladigan naqd pulsiz hisob-kitob tizimlarini rivojlantirish orqali naqd pullar ustidan samarali monitoring ishlari olib borilgan va ularga xos bo'lgan tendensiyalar quyidagilardan iborat:

1. Plastik kartochkalar orqali naqd pul mablag'lariga nisbatan limitlar belgilash tartibi dunyoning qator mamlakatlari amaliyotida joriy qilingan.

Buyuk Britaniyada davlat tomonidan operatsion kun davomida plastik kartochka orqali naqd pul olishga limit belgilangan. Ya'ni, bitta plastik kartochka egasi bir kunda 300 dollargacha naqd pul olishi mumkin. Germaniyada esa bu ko'rsatkich 500–600 dollarni tashkil qiladi [6].

Rivojlangan davlatlarda plastik kartochkalar orqali naqd pul olishga limitlarning belgilanishi so'nggi yillarda juda ko'paygan tovlamachiliklar bilan izohlanadi.


2. Smart kartalardan foydalanishga ommaviy o'tish tendensiyasi.

Smart kartalar orqali katta hajmdagi xilma-xil moliyaviy xizmatlar bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish imkoniyati ularga bo'lgan talabning keskin oshishiga olib keldi. Smart kartalar orqali bolalarning yordam puli, ishsizlik nafaqasi, pensiyalar, kommunal to'lovlar, ish haqi va tovarli kreditlarni amalga oshirish mumkin.

3. Plastik kartochkalar vositasidagi savdo tranzaksiyalari hajmining oshishi savdo korxonalarining majburiyatlarini ko'payishiga olib kelmoqda.

4. Rivojlangan davlatlarda naqd pulsiz hisob-kitoblarning umumiy hajmida plastik kartochkalar vositasidagi to'lovlar salmog'ining yuqori bo'lishi.

Rivojlangan davlatlarda plastik kartochkalar vositasidagi to'lovlar naqd pulsiz to'lovlarning umumiy hajmida katta ulushni egallaydi. Xususan, Kanada, Shveysariya va AQSHda plastik kartochkalar orqali amalga oshiriladigan to'lovlar naqd pulsiz to'lovlarning umumiy hajmida salmog'i bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. Bu holat mazkur mamlakatlarda plastik kartochkalarga asoslangan to'lov tizimining yuqori darajada rivojlanganligini ko'rsatadi.




1-rasm: 2024-yilda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda muomaladagi naqd pullarning ulushi, %da.

Bugungi kunda Osiyo–Tinch okeani hududida, ayniqsa Yaponiya, Avstraliya, Janubiy Koreya va Gong Kong kabi davlatlarda to'lovga aloqador infratuzilmalarning yaxshi rivojlanganligi, shuningdek mobil to'lovlar va lokal karta to'lov xizmatlarining kengayganligi sababli to'lov tizimi va plastik kartochkalar tizimi yaxshi rivojlangan.

Osiyo–Tinch okeani mamlakatlarida plastik kartalar muomalaga kirgandan so'ng muomaladagi naqd pullar massasi qisqarib, naqd pulsiz aylanma hajmi ortmoqda. Xususan, Osiyo bo'yicha naqd pulsiz tranzaksiyalar hajmi 2020-yilga kelib 301 trillion dollarni tashkil etishi prognoz qilingan va Osiyo–Tinch okeani mamlakatlari naqdsiz tranzaksiyalar hajmi bo'yicha dunyoning yetakchi mamlakatlari darajasiga yetishi kutilmoqda.

Bundan tashqari, rivojlangan davlatlarda kutilayotgan naqd pulsiz hisob tranzaksiyalari hajmi nisbatan past darajada. Masalan, AQSHda naqd pulsiz hisob tranzaksiyalari hajmi 2025-yilga borib 123,7 trillion dollarni, Yevropada esa ushbu ko'rsatkich 207,7 trillion dollarni tashkil qilishi kutilmoqda.



2-rasm. Janubiy Koreyada muomaladagi naqd pullar koeffitsiyentini soliq siyosati ta'sirida yillar bo'yicha o'zgarishi.



Mazkur soliq siyosati ishlab chiqilmasdan oldin ushbu ko'rsatkich 5,2 % edi. 2022-yil 1-aprel va 2023-yil holatiga kelib muomaladagi naqd pullar koeffitsiyenti 2,2 %ni tashkil qilmoqda.

Misol uchun, Janubiy Koreyada 1999-yilda muomaladagi naqd pullarni qisqartirish va naqd pulsiz hisob-kitob tizimini rivojlantirish maqsadida hukumat tomonidan soliq imtiyozlari joriy qilingan. Ya'ni, kredit kartochkalari orqali xaridni amalga oshirgan iste'molchilarga imtiyozlar berilgan. Bunda tovarlar narxlarini naqd pulga qaraganda arzonlashtirilgan, savdo nuqtalarining soliq to'lovlari kamaytirilgan. Shundan so'ng iste'molchilar ilgari naqd pulda xarid qilgan bo'lsalar, endilikda kredit kartalari orqali xarid qilishni afzal ko'ra boshlaganlar. Natijada muomaladagi naqd pullar koeffitsiyenti 4,6 %ga tushgan.

O'z navbatida, kafolatlangan cheklarning muomalaga kiritilishi ham naqd pullarning kamayishiga, elektron to'lovlarning, jumladan internet banking va SMS banking xizmatlari ko'lamining kengayishiga olib kelgan.

Kafolatlangan cheklar deyarli naqd pul funksiyasini bajaradi. 100 000 vonga tenglashtirilib chiqarilgan ushbu cheklardan foydalanishning salbiy tomoni shuki, xavfsizlik nuqtayi nazaridan ularni naqd pulga qaraganda soxtalashtirish imkoniyati yuqoriroqdir. Shu sababli so'nggi yillarda 100 000 vonlik cheklar muomalada kamayib bormoqda.

Hozirgi kunda muomalada bo'lgan kredit kartochkalarning salmog'i boshqa kartalarga nisbatan juda yuqori. Mamlakatda plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalarning 98 %i aynan kredit kartochkalari orqali bajariladi.

Mazkur tendensiyaning yuzaga kelishining asosiy sababi 1999, 2001 va 2005-yillarda hukumat tomonidan amalga oshirilgan soliq siyosati, shuningdek mamlakatda hisob-kitob cheklari va plastik kartochkalar tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor berilganligidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot jarayonida xorijiy davlatlar amaliyotini o'rganish shuni ko'rsatdiki, rivojlangan mamlakatlarda plastik kartochkalar tizimi moliyaviy ma'lumotlarni himoyalash, xarajatlarni kamaytirish va naqd pulsiz hisob-kitoblarni kengaytirish yo'nalishida izchil rivojlangan. Xususan, smart-kartalar qo'llanilishi bank tizimining xavfsizligini oshirgan, naqd pulsiz to'lovlar hajmini sezilarli kengaytirgan va orqali moliyaviy operatsiyalarda shaffoflikni ta'minlagan.

Plastik kartochkalar orqali amalga oshiriladigan naqd pulsiz hisob-kitob tizimlarini rivojlantirish naqd pullar ustidan samarali monitoring olib borish imkonini yaratadi. Osiyo–Tinch okeani davlatlari tajribasi ham shuni ko'rsatdiki, plastik kartalar muomalaga kirgandan so'ng muomaladagi naqd pullar massasi kamayib, naqd pulsiz aylanma hajmi sezilarli darajada oshgan. Buning asosiy omillari sifatida to'lov infratuzilmasining takomillashuvi, raqamli xizmatlarning kengayishi va aholining to'lov madaniyati o'sishi e'tirof etiladi.

Janubiy Koreya tajribasi esa naqd pulsiz iqtisodiyotni shakllantirishda soliq imtiyozlarining samarali vosita ekanini ko'rsatadi. Kredit kartalari orqali xarid qilgan iste'molchilarga berilgan imtiyozlar, tovarlarning narxini pasaytirish hamda savdo nuqtalarining soliq yukini kamaytirish natijasida aholi kredit kartalaridan faol foydalanishga o'ta boshlagan. Bu esa muomaladagi naqd pullar koeffitsiyentining keskin pasayishiga olib kelgan.

Mazkur tahlillar asosida pul aylanmasini takomillashtirish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Plastik kartochkalar orqali olinadigan naqd pulga limitlar joriy etish.

Buyuk Britaniya va Germaniya tajribasida bo'lgani kabi limitlar joriy etilishi tovlamachilikni kamaytiradi va pul aylanmasini nazorat qilishga yordam beradi.

2. Smart-kartalar tizimini ommaviy rivojlantirish.

Smart kartalar orqali yordam pullari, pensiyalar, ish haqi, kommunal to'lovlar va kreditlar to'liq raqamli shaklda amalga oshirilishi ularning ommalashuviga xizmat qiladi.

3. Naqd pulsiz tranzaksiyalar ulushini oshirish.

Infratuzilmani modernizatsiya qilish, terminallar sonini ko'paytirish va to'lov tizimlarini qulaylashtirish orqali plastik kartalar orqali amalga oshiriladigan to'lovlar ulushini oshirish maqsadga muvofiq.

4. Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashni kuchaytirish.

Ko'chmas mulk va avtomobil oldi-sotdisini bosqichma-bosqich naqd pulsiz shaklga o'tkazish naqd pul aylanishini kamaytiradi.

Yuqoridagi takliflar pul aylanmasi shaffofligini oshirish, bank tizimi samaradorligini kuchaytirish va naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tish jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Банковское дело. Под ред. Лаврушина О. И. – М.: ЗАО «КноРус», 2008. – С. 309.
2. Березина М. П. Безналичные расчёты в экономике России. Анализ практики. – М.: АО «Консалтбанкир», 1997. – С. 5.



3. Райзберг Б. А., Лозовский Л. Ш., Стародубцева Е. Б. Современный экономический словарь. – М.: Инфра-М, 2000. – С. 288.
4. Рахимова Х. У. Организация и развитие платёжной системы Республики Узбекистан. Дисс. на соискание уч. ст. к.э.н. – Ташкент, 2006. – С. 19–20.
5. Жумаев Н. Х. Ўзбекистонда валюта муносабатларини тартибга солиш методологиясини такомиллаштириш. И.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент: БМА, 2008. – 32 б.
6. Рудакова О. С. Банковские электронные услуги. – М.: ЮНИТИ, 2001. – С. 107.
7. <http://visa.com.ru/>
8. "International Financial Statistics" ma'lumotlari asosida hisoblandi.
9. www.banki.ru/news/bankpress
10. www.vrfinancialnews.com
11. <https://tradingeconomics.com>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
